



SAPAEV MAXSUDBEK KARIMOVICH
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
maxsudbek.sapayev@mail.ru

HUDULARDA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamlakatimiz mintaqalarida sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirishga e’tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Chunki, korxonalar mintaq iqtisodiyotining lokomotiviga aylandi. Mintaqalarda sanoat korxonalarini rivojlantirish borasidagi iqtisodiy islohotlarni davom sifatida oxirgi yillarda sohaga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi soha rivojiga to‘rtki bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmon mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko‘maklashuvchi yaxlit tizimning yaratilishi, shuningdek hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilda 12-oktyabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-169-sonli Farmonining qabul qilinishi sanoat tarmoqlarini ustuvor darajada rivojlantirishga to‘rtki bo‘ldi. Ushbu farmonda keltirilgan asosiy vazifalar sifatida aytish joizki, bugungi kunda mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo‘nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida, davlat sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator vazifa va funksiyalar belgilab berildi.



Hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. 2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 485,0 mingtani tashkil etdi, ulardan 417,1 mingtasi kichik korxona va mikrofirmalar. Shuningdek, ushbu davrga 688,3 mingta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil etdi.



**1-rasm. Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-yanvar holatiga ko'ra)⁵**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida –

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz



2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,8 % (23,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 37,5 % (36,8 %), quyi texnologiyali 36,3 % (38,0 %) ni tashkil etgan.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ga to'g'ri keldi.

Hudularda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %) ni tashkil etdi.

Hudularda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 1 333,1 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan), 553,5 ming tonna kalava ip (5,5 % kamaygan), 263,0 mln. litr pivo mahsulotlari (21,0 % ga ko'paygan) hamda 1 128,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, bu yo'ldagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish maqsadida, uzoqni ko'zlab olib borilayotgan islohotlar samarasi milliy iqtisodiyotimizning chinakam tayanchiga aylandi. Xususan, 2024-yil 1-yanvar holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 420,8 mingtani tashkil etdi.

Ulardan 3 yil davomida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining soni 183,9 mingtani, 5 yil davomida 98,6 mingtani, 10 yil davomida 70,6 mingtani va 10 yildan ortiq davr davomida 67,6 mingtani tashkil qildi. Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soniga nisbatan 10 yildan ortiq davrda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushlari Andijon (18,8 %),




Qashqadaryo (18,8 %), Farg'ona (17,5 %), Namangan (16,5 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (18,0 %) qayd etildi.

Hududlar kesimida

16 987	Toshkent sh.	17,1 %
8 248	Farg'ona v.	19,4 %
7 771	Samarqand v.	17,9 %
7 156	Toshkent v.	15,8 %
6 457	Xorazm v.	23,8 %
6 436	Qoraqalpog'iston R.	24,8 %
6 145	Qashqadaryo v.	18,6 %
5 784	Buxoro v.	18,5 %
4 778	Namangan v.	17,3 %
4 542	Jizzax v.	22,8 %
4 388	Andijon v.	14,8 %
3 915	Surxondaryo v.	15,9 %
3 910	Navoiy v.	17,9 %
2 270	Sirdaryo v.	16,9 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2-rasm. Hudularda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar faoliyati tahlili (2023-yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, birlikda)⁶

Hudularda joriy yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 88,8 mingtani tashkil etdi. Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoqda.

Jumladan: Qoraqalpog'iston Respublikasida (1 964 taga), Buxoro viloyatida (1 212 taga) va Toshkent shahrida (1 215 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni tashish va saqlash xizmatlari (591 tani) hamda axborot va aloqa sohalari (304 tani) tashkil etdi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 485,0 mingtaga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,8 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,6 %, sanoat – 14,3 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,8 %, qurilish – 7,2 %, hududiy kesimda eng ko'p Toshkent shahrida 20,4 %, Toshkent – 9,3 %, Samarqand – 9,0 %, Farg'ona viloyatlarida – 8,8 % va Qashqadaryoda – 6,8 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Hudularda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobiga, hududlarda 6 mlrd.dollarlik mahalliyashtirish loyihalarini amalga oshirish, hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan 3 mingga yaqin loyihalarni vaqtida ishga tushirish masalalari belgilab berildi.

Xulosa qilib aytganda, hudularda sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirish borasida yaratilayotgan ushbu imkoniyatlar sanoat tarmoqlarining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi islohotlar istiqbolida o'zining amaliy natijalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'isida"gi PΦ-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. 2021 yil 24 mart. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>
3. <https://www.statista.com/statistics>
4. <https://lex.uz/ru/docs/6633676>
5. <https://president.uz/uz/lists/view/5810>